



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
INSON RESURSLARI VA MAHALLA
TARAQQIYOTINI BOSHQARISH
INSTITUTI**



Ro'yxatga olindi: № <u>60410600</u> <u>60411000</u> 2024 yil "12" <u>08</u>	 "TASDIQLAYMAN" SamDU rektori: <u>R.I.Xalmuradov</u> 2024 yil " " "
--	--

EKONOMETRIKA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, Boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410600 – Bank ishi 60411000 – Inson resurslarini boshqarish

Samarqand-2024

Fan/modul kodi EVA/ET/7.305	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 8		
Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)	
1.	EKONOMETRIKA	64	86	150
3. I. FANING MAZMUNI				

2. I. FANNING MAZMUNI.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlari kabi murakkab iqtisodiy tizimlarni ekonometrik modellashirish asoslarini o'rgatishdan, o'rganilayotgan jarayonlarga iqtisodiy-statistik va ekonometrik usullarni qo'llashni, iqtisodiy dinamikani o'rganishda turli xil funksiyalar, ekonometrik modellarni kompyuter dasturlari yordamida yechish va olingan natijalarni iqtisodiy tahlil qilish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Fanning vazifasi – mikro va makro jarayonlar tahlilida qo'llaniladigan ekonometrik usullar va modellarni o'rgatish hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarni kompyuter texnologiyalari asosida ekonometrik modellashirish va prognozlashni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berish.

Fan mazmuni

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Ekonometrika fanining predmeti, usullari, vazifalari va asosiy tushunchalari.

Ekonometrikaga kirish. Ekonometrika va uning statistika va boshqa fanlar bilan aloqasi. Iqtisodiy tizimlar va jarayonlarning murakkabligi. Iqtisodiyotni ekonometrik modellashirishning zarurligi. Ekonometrik model to'g'risida tushuncha. Ekonometrik modellarni yaratish shartlari. Ekonometrik modellarning statistik bazasi. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili va boshqariladigan ekonometrik modellardan foydalanish. Milliy iqtisodiyot murakkab ierarxik tizim sifatida. Ekonometrik modellashirish. Ekonometrik modellardagi o'zgaruvchilar. Aniq iqtisodiy obyektlar. Bog'lanishlarni iqtisodiy talqin qilish. Ekonometrikning asosiy maqsadi. O'zgarish qonuniyatlari va tendensiyalarini o'rganish. Ekonometrik modellashirish va modellarning ahamiyati. Ekonometrik usullar yordamida resurslardan oqilona foydalanish. Ekonometrik modelning umumiy ko'rinishi. Bog'liq va bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilar. Stoxastik model. Statik model. Dinamik model. Ekonometrik modellashirish bosqichlari.

2-mavzu. Ekonometrik modellashirish bosqichlari.
qo'yiladigan asosiy talablar.

Iqtisodiy ma'lumotlarning statistik tabiati. Iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash. Bog'liq va bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilarni tanlash. Natijaviy ko'rsatkich va ta'sir etuvchi omillar. Endogen va ekzogen omillar. Fiktiv o'zgaruvchilar. Omilli va natijaviy belgilar. Ekonometrik modellarni tuzishga bo'lgan talablar. Omillar o'lchov birligini tanlash. Dastlabki axborotni shakllantirish. Vaqti qatorlar va fazoviy ma'lumotlarning farqlari. Panel ma'lumotlari.

3-mavzu. Ekonometrikada ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning asosiy tushunchalari.

Tasodifiy miqdor to'g'risida tushuncha. To'plan to'g'risida tushuncha. Bosh, tanlama, cheklangan, cheksiz to'planlar. To'plan birligi, elementi, kuzatish. Diskret tasodifiy miqdorlar. Uzlaksiz tasodifiy miqdorlar. Tasodifiy miqdor taqsimotining miqdoriy xarakteristikalar. O'racha qiymat. Matematik kutilish. Dispersiya. Tasodifiy miqdorning standart chetlanishi. Tasodifiy miqdorning variatsiya koeffitsiyenti. Belgi, arifmetik o'racha. Variatsiya, variant, variatsion qator. Chastota, absolyut miqdor, nisbiy chastota. Variatsiya chegarasi, ekstremal qiymat. O'racha chiziqli farq. Dispersiya. Variantlarning arifmetik o'rachasi va o'racha kvadrati. O'racha kvadratik farq. Variatsiya koeffitsiyenti. Nisbiy ko'rsatkich. Eksstess. Asimmetriya.

4-mavzu. Juft korrelyatsion-regression tahlil.

Bir omilli chiziqli bog'lanish. Bog'liqliklar turlarini o'rganish. Stoxastik bog'liqliklar. Korrelyatsiya maydoni. Kovariatsiya koeffitsiyenti va uni hisoblash usuli. Chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyenti. Bog'lanishning zichligi, tahlilning samadorligi. Korrelyatsiya koeffitsiyentining o'zgarish intervali. Korrelyatsiya koeffitsiyenti turlari. Korrelyatsiya koeffitsiyenti ahamiyatini Student mezonini bo'yicha baholash. Bosh to'plan va tanlama uchun korrelyatsiya koeffitsiyentlari. Korrelyatsion tahlil bosqichlari. Juft chiziqli regressiya (ekonometrik model) tushunchasi. Regressiya koeffitsiyentlari. "Eng kichik kvadratlarda" (EKK) yordamida regressiya koeffitsiyentlarini hisoblash. Regressiya koeffitsiyentlarining iqtisodiy ma'nosi. Jitmoiy-iqtisodiy jarayonlar o'rasiida bog'lanishlarni o'rganishda chiziqli funksiyalardan foydalanish. Chiziqli bog'lanishlar uchun korrelyatsiya indeksini hisoblash. Ikkinchi darajali parabola. Uchinchi darajali parabola, n -darajali parabola. Gipربول. b -darajali gipربول. Logarifmik funksiya. Yarim logarifmik funksiya. Ko'rsatkichi funksiya. Darajali funksiya. Logistik funksiya. Chiziqli bog'lanishlar uchun korrelyatsiya indeksini hisoblash. Determinatsiya koeffitsiyenti. Korrelyatsion tahlilning iqtisodiy ma'nosi. "Eng kichik kvadratlarda" (EKK) yordamida chiziqli regressiya koeffitsiyentlarini hisoblash.

5-mavzu. Ekonometrik modellar ishonchiligi va ular parametrlari mohiyatligini baholash.

Ko'p omilli ekonometrik modellar parametrlarini Student mezonini asosida tekshirish. Ekonometrik modellarni ahamiyatini Fisher mezonini va aproksimatsiya xatoligi yordamida baholash. Determinatsiya koeffitsiyenti va Fisher mezonining o'zaro aloqadorligi. O'zgaruvchi omil uchun Fisherning xususiy mezonini. "EKK" bajarilishini Darbin-Uotson mezonini bo'yicha baholash.

Musbat va manfiy avtokorelyasiya. Avtokorelyasiyani aniqlash uchun testlar. Avtokorelyasiyaning paydo bo'lish sabablari. Avtokorelyasiyani bartaraf etish yo'llari. G omoskedatik va geteroskedatik. Geteroskedatikni aniqlash uchun testlar. Geteroskedatikni bartaraf etish yo'llari.

6-mavzu. Ko'p omilli ekonometrik tahlil.

Iqtisodiy jarayonlarning ko'p omilli xususiyatlari va o'zgarish qonuniyatlari. Ekonometrik model tuzish uchun omillarni tanlash uslubiyati. Xususiy korrelyatsiya. Juft korrelyatsiya. Multikolleniarlik. Ko'p omilli korrelyatsiya. Ko'p omilli determinatsiya ko'effitsienti. Ko'p omilli ekonometrik (regression) model. Chiziqi va chiziqsiz ko'p omilli regression bog'lanishlar. Elastiklik ko'effitsientlarini hisoblash. "Eng kichik kvadratlarda" usuli yordamida ko'p omilli ekonometrik modelning parametrlarini hisoblash. Standartlashtirilgan masshabdagi regressiya tenglamasi. Regressiyaning xususiy tenglamasi. Tenglamaga kiritilgan omillar soni. Elastiklikning xususiy ko'effitsientini aniqlash. Ekonometrik model parametrlari iqtisodiy tahlili.

7-mavzu. Tenglamalar tizimi ko'rinishidagi ekonometrik model.

Bir vaqti tenglamalar tizimi. Tenglamalar tizimi turlari. Ekzogen o'zgaruvchilar, endogen o'zgaruvchilar va lagli (oldindan aniqlangan) o'zgaruvchilar. Tenglamalar tizimi parametrlarini bavoita va umumlashtirilgan "eng kichik kvadratlarda usuli" yordamida hisoblash uslubiyati. Tizimni identifikatsiyalash muammolari. Bir vaqti tenglamalar tizimining iqtisodiy ahamiyatli misollari.

8-mavzu. Davriy qatorlarda ekonometrik modellash.

Davriy qatorlar asosiy komponentlari, additiv va multiplikativ modellar, davriy qatorlar tendentsiyasini modellash, davriy qatorlar darajalari avtokorelyatsiya, qoldiqda avtokorelyatsiya, Dabbin-Uotson mezon, mavsumiy va tsiklik tebranishlarni modellash, tendentsiyani yo'qotish usullari.

9-mavzu. Amaliy ekonometrik modellar.

Ishlab chiqarish funksiyalari. Ishlab chiqarish funksiyasi turlari. Ko'rsatkichi funksiya. Kobb-Duglas funksiyasi. Darajali modelni chiziqi ko'rinishga keltirish usuli. Anamorfoza usuli. Ishlab chiqarish funksiyasi xarakteristikalar. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro almashish normasi va elastiklik ko'effitsienti. Iqtisodiy o'sish modellari. Muvozanat narx. Muvozanat yalpi mahsulot qiymati. Fillips egri chizig'i. "SoF" eksport funksiyasi. Daromad funksiyasi. Iste'mol funksiyasi. Talab va taklifni tahlil qilish. Ishlab chiqarish xarajatlari funksiyalari. Asosiy fondlar va investitsiyalar tahlili.

10-mavzu. Dinamik ekonometrik modellar.

Dinamik ekonometrik modellar. Asosiy tushunchalar. Taqsimlangan lag modellarning xarakteristikasi, ularning parametrlarini baholash. Avoregression model. Endogen ko'rsatkich. Dinamik ekonometrik modellarni tuzish tamoyillari. Vaqti lag. O'racha lag. Mediana lag. Polinomlar. Almon lag. Koyka usuli. Asosiy komponentlar usuli. Adaptiv kutilish va to'liq korrektirovkalanmagan model. Avioregressiya modellari parametrlarini baholash.

11-mavzu. Iqtisodiy o'sish modellari.

Iqtisodiy o'sishning asosiy tushunchalari, iqtisodiy o'sishning ekonometrik tahlilida ishlab chiqarish funksiyalarini qo'llash.

12-mavzu. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashda ekonometrik modellardan foydalanish.

Ishlab chiqarish omillari. Ijtimoiy-iqtisodiy prognozlash: umumiy tushunchalar va obyektlari. Prognozlash funksiyalari. Prognozlash obyektlarining tizimli tahlili. Prognoz usullari va ularning turlari. Prognozlash usullari. Ekspert usuli. Ekstrapolyatsiya usuli. Trend (vaqt) bo'yicha regressiya davrida tenglama qiymatlarini tekislash. Ekonometrik modellash usuli. Ekonometrik tenglamalar tizimi yordamida prognozlash usuli. Imitatsion usul. Senariy usuli.

13-mavzu. O'zbekistonning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining ekonometrik modellari.

Iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarining omilli tahlili, omilli tahlil modellari tuzishning va omillarni baholashning asosiy usullari va bosqichlari.

14-mavzu. Ishlab chiqarish funksiyalari va ularning xususiyatlari.

Ishlab chiqarish funksiyalarning umumiy xossalari, bir-birini o'zini bosuvchi resursli ishlab chiqarish funksiyalari va elastiklik ko'effitsientlari, ikki omilli ishlab chiqarish funksiyasi, ishlab chiqarish funksiyalari bo'yicha bashoratlash bosqichlari, bir nechta resursli ishlab chiqarish funksiyalari

15-mavzu. Mavsumiy tebranishlar.

Mavsumiy tebranishlar to'g'risida tushuncha, ekonometrik modellarda identifikatsiya muammolari, regression model o'zgaruvchilari nochiiziqiligi va uni hal etish usullari.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ekonometrika fanining predmeti, usullari, vazifalari va asosiy tushunchalari.
2. Ekonometrik modellarning axborot ta'minoti va ularga qo'yiladigan asosiy talablar.
3. Ekonometrikada ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning asosiy tushunchalari.
4. Juft korrelyatsion-regression tahlili.
5. Ekonometrik modellar ishonchiligi va ular parametrlari mohiyatligini baholash.
6. Ko'p omilli ekonometrik tahlil.
7. Tenglamalar tizimi ko'rinishidagi ekonometrik model
8. Davriy qatorlarda ekonometrik modellash.
9. Amaliy ekonometrik modellar.
10. Dinamik ekonometrik modellar.
11. Iqtisodiy o'sish modellari.

12. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashda ekonometrik modellardan foydalanish. 13. O'zbekistonning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining ekonometrik modellari. 14. Ishlab chiqarish funksiyalari va ularning xususiyatlari. 15. Mavsumiy tebranishlar. IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular “Ekonometrika” fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejas 1. Ko'p omilli ekonometrik tahlilda omillarni tanlash muammosi. 2. Ekonometrik modellashda qo'llaniladigan amaliy dasturlar paketlarining xususiyatlari. 3. Ekonometrik model parametrlarini aniqlashda “eng kichik kvadratlari usuli” dan foydalanish uslubiyati. 4. Tenglamalar tizimi ko'rinishidagi ekonometrik model. 5. Additiv va multiplikativ ekonometrik modellarni tuzish. 6. To'varlar bozori konjunktura o'zgarishlarini hisobga olgan holda iqtisodiy tahlilni amalga oshirish va asosiy ko'rsatkichlarni prognozlash. 7. Makroiqtisodiy indikatorlarni ishlab chiqarish funksiyalari yordamida tadqiq qilish. 8. Mahsulotga bo'lgan talab va taklifning ekonometrik modelini tuzish va 5 yilga prognozi amalga oshirish. “Ekonometrika” fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqda bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyihalar, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Mazkur vazifalarni yaxshiroq tasavvur qilish va amalga oshirishda ushbu fan ham ma'lum hissa qo'shadi, deb o'ylaymiz. Mustaqil ta'lim talabning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, auditni o'rganishda fanning biror bir mazzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishi bajarishdan maqsad, talabning o'qishi davomida olgan bilimni mustakamlash, chuqurlashtirish va umimlashtirishdan iboratdir. Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ta'lim uchun o'quv va ishchi o'quv reja 88 soat ajratilgan. Ushbu soat talabning amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi, oraliq nazoratlarda, yakuniy nazoratda va boshqa mustaqil shug'ullanishini o'z ichiga oladi.	3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • iqtisodiy tizimlar va jarayonlarning murakkabligi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni tasvirlash usullari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning asosiy
---	--

ko'rsatkichlari, korelyatsiya usullari, regressiya usullari, dispersiya usullari, indekslar nazariyasi usullari, mikro va makro jarayonlar tahlilida qo'llaniladigan ekonometrik usullar va modellari, ishlab chiqarish funksiyalari, talab va taklifning ekonometrik modellari, ekonometrik modellash tizimlari, tamoyillari, vaqti qatorlarni tekislash eksperimental o'racha usuli, iqtisodiy ko'rsatkichlarni kompyuter texnologiyalari asosida ekonometrik modellash tizimlari va prognozlash haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lish</i>: • iqtisodiy qonunlar va qonuniyatlarning amal qilish mexanizmi, murakkab iqtisodiy tizimlar va jarayonlarni ekonometrik modellash tizimlari, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni tasvirlash usullari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning asosiy ko'rsatkichlari, mikro va makro jarayonlar tahlilida qo'llaniladigan ekonometrik usullar va modellari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tahlilida ekonometrik modellardan foydalanish, noaniqlik va tavsakkalchilik sharoitida optimal qaror qabul qilish usullarini amaliyotda qo'llash <i>ko'nikmalarga ega bo'lish</i>: • yangi axborot texnologiyalari sharoitida mikro va makro jarayonlar tahlilida qo'llaniladigan ekonometrik usullar va modellari to'g'risida anglash, iqtisodiy o'sish modellari tuzish, ishlab chiqarish jarayonlarini ekonometrik modellash tizimlari, “eng kichik kvadratlari” usullaridan foydalanish <i>malakalarga ega bo'lish kerak</i>.	4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadlar; • aqliy hujum metodi; • insert texnikasi; • muammoli masala va vaziyatlar metodi; • klaster; • targatma materiallar.
5. VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va jo'ny, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini loqoshirish.	6. Asosiy adabiyotlar: 1. O.E.Etmazov, Sh.Q. Yuldoshev. Ekonometrika asoslari. O'quv qo'llama. – S.: “SamDU nashriyoti”, 2022 y. – 216 bet. 2. Rasulev D., Nurullayeva Sh., Ro'zmetova N., Muminova M. Ekonometrika asoslari. O'quv qo'llama. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 248 bet. 3. ЭКОНОМЕТРИКА - Алимов Р.Х., Болтаева Л.Р., Ишматов А.И. – Т.: ТДИУ, 2012. – 115 б. 4. Ходиев В.У., Шодиёев Т.Ш., Беркин В.В. Эконометрика: О'quv qo'llama. – Т.: IQTISODIYOT, 2018. 178 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. // Xalq so'zi. 29 yanvar 2022 yil...
2.	Greene W.H. Econometric Analysis. Prentice Hall, 2011. — 1232 p.
3.	Кренер Н.Ш. Эконометрика: Учебник. — М.: Издательство Юрайт, 2018. — 354 с.
4.	Демидова О.А. Учебник и практикум для прикладного бэккалупрата. — М.: Издательство Юрайт, 2018. — 334 с.
Аxborot манбалари (saytlar):	
1.	www.mf.uz — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
2.	www.lex.uz — O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3.	www.ifmr.uz — O'zbekiston Respublikasi Prognostlashirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti sayti.
4.	www.mineconomy.uz — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi sayti.
5.	www.stat.uz — O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2022 yil "9/2" qarorig'idagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan moduli uchun mas'ul: O.E.Ernazarov — SamDU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, PhD.
9.	Taqrirlashchilar: B.T.Salimov — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi professor, i.f.d; (tashq) +998911341950 A.N.Nizamatov — SamDU, Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent. +998 97 398 67 17

Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturi uchun mas'ul bo'lgan va mustaqil ta'lim jopshirishlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi
guruh boshlig'i, a'zo va a'zolari

INSOIN
REPUBLIKASI
RAQAMLI IQTISODIYOT
KAFEDRASI
SamDU
Qo'shimcha adabiyotlar:

Z.T.Bakayev
Sh.D.Diyarukulov
Sh. Rashidov nomidagi
SamDU O'quv ishlari bo'yicha
I-prorektor:

A.S.Soleyev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
raqamli iqtisodiyot kafedrasi dotsenti O.E.Ernazarov tomonidan
"Ekonometrika" fanidan tayyorlangan fan dasturiga
TAQRIZ

O'zbekiston Respublikasi mustaqil rivojlanish yo'lini tanlagandan so'ng, iqtisodiyotda bozor munosabatlari shakllanishi bilan birga qabul qilingan kadrlar tayyorlashning Milliy dasturiga asosan zamonaviy malakali mutaxassislarni tayyorlashga ham katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz tomonidan jahon standartlariga mos keluvchi ta'lim standartlarini, o'quv rejalari va dasturlarini yaratish hamda takomillashtirish bo'yicha muhim vazifa qo'yildi.

"Ekonometrika" fani talabalarda zarur aniq iqtisodiy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu esa bozor munosabatlari va iqtisodiy ishlarining markaziy hozirgi kunda birlamchi bo'lg'in korxona iqtisodiyoti darajasiga ko'rilgan sharoitlarda juda muhim hisoblanadi.

Mazkur fan dasturi talabalarning ekonometrik modeldashirish asoslarini, ekonometrik modelning axborot ta'minoti, ekonometrikda ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning asosiy tushunchalari, juft korrelyatsion-regression tahlil, ko'p omilli ekonometrik tahlil, ekonometrik modelni baholash, vaqtli qatorlar, tenglamalar tizimi ko'rinishidagi ekonometrik model, amaliy ekonometrik model, dinamik ekonometrik model, iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashda ekonometrik modellardan foydalanish kabi bilimlarini oshirib, uni amaliyotga joriy qilish imkonini beradi.

Ushbu fan dasturi asosida talabalar korxona va tashkilotlarning iqtisodiy bo'limlarida, chakana savdo bo'limlarida, ishlab chiqarish bo'limlarida va buxgalleriya bo'limlarida faoliyat ko'rsatishi uchun boshlang'ich bilimlarni egallaydi. Hamda ish faoliyatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy faoliyatlarini tahlil qilish va baholashda amaliy jihatdan xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda ushbu "Ekonometrika" fani dasturi qo'yilgan barcha talablarga javob beradi va undan foydalanish mumkin.

Taqrirlashchi:
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi
professori, i.f.d.

B.T.Salimov



Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va
maʼmuriy tashkiloti boshqarishi instituti Raqamli iqtisodiyot kafedrasini
doʻsenti O.E.Ernazarov maʼmuriylikda tayyorlangan "Ekonometrika" fanidan
tuzilgan fan dasturiga (tchik)

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi 60411000 – Inson resurslarini boshqarish va 60410600 –
Bank ishi katalavriyat taʼlim yoʻnalishi uchun moʻljallangan boʻlib, unda
"Ekonometrika" fani boʻyicha oʻrnatilishi lozim bilim, koʻnikma va malakalar
kelirilgan.

Mazkur fanning maqsadi talabalarida bozor munosabatlari sharoitida milliy
iqtisodiyot va uning tarmoqlari kabi murakkab iqtisodiy tizimlarni ekonometrik
modellashtirish asoslarini oʻrganishdan, oʻrganilayotgan jarayonlarga iqtisodiy-
statistik va ekonometrik usullarni qoʻllashni, iqtisodiy dinamikani oʻrganishda turli
xil funksiyalar, ekonometrik modelni kompyuter dasturlari yordamida yechish va
olingan natijalarni iqtisodiy tahlil qilish boʻyicha boshqaruv qarorlarini qabul
qilishda yoʻnalish profiliga mos bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirish.

Ushbu fan "Ekonometrika" deb nomlanib, unda sizga mikro va makro
jarayonlar tahlilida qoʻllaniladigan ekonometrik usullar va modelni oʻrganish
hamda iqtisodiy koʻrsatkichlarni kompyuter texnologiyalari asosida ekonometrik
modellashtirish va prognozlashni amalga oshirish yoʻllarini koʻrsatib berish.

Fan dasturida fan boʻyicha talabalarining bilim, koʻnikma va malakalariga
qoʻyiladigan talablar, maʼruza va amaliy mashgʻulotlar mazmuni, taʼlim
texnologiyalari va metodlari, mustaqil ishning tashkil etish shakli va mazmuni,
foydalaniladigan asosiy hamda qoʻshimcha adabiyotlar roʻyxati keltirilgan.

Muallif tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi taʼlim
yoʻnalishi talabalarini uchun moʻljallangan boʻlib, boʻljajak banklarning ish
samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga dastur hozirgi kun talabalar
darajasida yozilgan va uni amalda foydalanishga tavsiya etilgan.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU
«Tarmoqlar iqtisodiyoti» kafedrasini
kafedrasini mudiri, I.I.N., doʻsenti

A.N.Nizamov

